Kövecses (2000) o‘zining kognitiv lingvistika nazariyasida so‘zlarning madaniyatga bog‘lanishini va ularning tilshunoslikka qanday ta’sir qilishini o‘rganadi [4;13-b.]. Bundan tashqari, o‘zbek tilshunosligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar (Isakova. 2015; Xo‘jayeva. 2017) o‘zbek milliy leksikonida milliy va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi so‘zlarni tahlil qilgan. Ushbu ishlar o‘zbek tilining mental leksikonining madaniy asoslarini va tilning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi [5;33-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada mental leksikonning milliy-madaniy talqini, til va madaniyat o‘rtasidagi aloqalar va so‘zlarning semantik o‘zgarishlari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish uchun quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1. **Kontent tahlili.** O‘zbek tilidagi turli matnlar, adabiyotlar va kundalik so‘zlashuvda ishlatiladigan so‘zlar tahlil qilindi. Bu orqali milliy-madaniy talqinlarning qanday shakllanishi va tilga ta'siri o‘rganildi.
2. **Lingvistik tahlil.** Ma’lum bir so‘zlarning semantik o‘zgarishlari va ularning pragmatik jihatlari aniqlanib, tilshunoslikka oid atamalar va iboralarning madaniy kontekstda qanday ishlatilishi ko‘rib chiqildi.
3. **Intervyu va anketalar.** O‘zbekistonning turli hududlaridan olingan intervyu va anketalar orqali tilshunoslikning amaliy tomoni hamda tilda qanday madaniy xususiyatlarning aks etishi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi mental leksikonning milliy-madaniy talqini so‘zlarning ma'nosiga, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o‘zgarishlariga ta’sir qiladi.

- **So‘zlarning semantik o‘zgarishi.** Ko‘plab so‘zlar boshqa madaniy muhitlarda ham to‘liq yoki o‘zgacha ma’nolarda ishlatiladi. Masalan, “mehr” so‘zi o‘zbek tilida nafaqat sevgi, balki insoniyatni hurmat qilish va yordam berishni anglatadi. Boshqa tillarda bu so‘z shunchaki “love” yoki “affection” sifatida qabul qilinadi, ammo uning chuqur madaniy ma’nosi yo‘q.
- **Pragmatik yondashuv.** O‘zbek tilidagi salomlashish, minnatdorchilik, ruxsat so‘rash kabi iboralar madaniyat va urf-odatlarga bog‘liq. Misol uchun, “Assalomu alaykum” salomi, ko‘pincha, yaqinlik va hurmatni aks ettiradi, bu esa boshqa madaniyatlarda o‘ziga xos tarzda qabul qilinadi.
- **Milliy-madaniy talqinlar.** O‘zbek tilida ishlatiladigan ba’zi so‘zlar, masalan, “yurt” so‘zi, faqat biror joyni anglatmaydi, balki milliy ajralib turish, o‘zlikni anglatuvchi bir tushuncha sifatida ishlatiladi. Bu mental leksikonning milliy xususiyatlarini ko‘rsatadi [6;42-b.].

Xulosa. Mental leksikonning milliy-madaniy talqini tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning ma’nolari va ularning ishlatilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu tahlil til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini va bir millatning madaniy qadriyatlarini qanday ifodalashini tushunishda muhimdir. Tadqiqot milliy-madaniy talqinlarni o‘rganish orqali tilshunoslik, psixolingvistika va madaniyatshunoslik fanlarida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Vigotskiy, L.S. (1986). Myshlenie i rech' [Thinking and Speech]. Moskva, “Nauka”.
(2). Sapir, E. (1949). Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt, Brace.
(3). Whorf, B.L. (1956). Language, Thought, and Reality. Cambridge, MA, MIT Press.
(4). Kövecses, Z. (2000). Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. Cambridge. Cambridge University Press.
(5). Isakova, T. (2015). O‘zbek tilidagi mental leksikonning madaniy xususiyatlari. Toshkent, “Fan”.
(6). Xo‘jaeva, M. (2017). Tilshunoslikda milliy xususiyatlar. Semantik va pragmatik yondashuvlar. Toshkent, “Universitet”.
(7). K.A. (2020). Pragmatika va madaniyatshunoslik. O‘zbek tilidagi pragmatik xususiyatlar. Toshkent, “Yoshlar”.
(8). Lee J. & Kim, H. (2018). Cultural Influences on the Lexicon: A Comparative Study. Journal of Cross-Cultural Linguistics, 22(4), p. 115–131.
(9). Crystal D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford: Blackwell.

Maxmudova Manzura Adashovna (Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o‘qituvchisi; e-mail: missterrasamarkand@gmail.com)

KONSEPT OLAMNING LISONIY MANZARASINI AKS ETTIRUVCHI LISONIY HODISA SIFATIDA

Annotatsiya. *Tilshunos olimlarning tadqiqotlariga asoslanib, ushbu maqolada “konsept” mental ifoda sifatida keltirilgan. Turli fan vakillari bo‘lgan ko‘plab akademiklar konseptlar mental ifodalar degan g‘oyani ishlab chiqdilar. U madaniy o‘ziga xoslik, konseptlar, narsalar, xatti-harakatlarni yoki holatlarni ifodalovchi mental borliq sifatida qaraladi. “Mental ifoda” atamasi bilim, g‘oyalar yoki tajribalarning ong-*

da qanday qilib saqlanishi va tartibga solinishini tavsiflaydi. Odamlarga ma'lumotni qayta ishlash, o'zgartirish va olish imkonini beradigan bu tasvirlar mental suratlar, belgilar yoki kognitiv tuzilmalar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu maqola madaniyatlarning konseptlar shakllanishiga ta'sirini ochib beradi.

Kalit so'zlar: *konsep, mental ifoda, prototip, freym, sxemalar, kategoriyalar, konseptual metaforalar, kognitiv shakllanish.*

Махмудова Манзура Адашовна (преподаватель Самаркандского филиала Ташкентского государственного экономического университета; электронная почта: missterrasamarkand@gmail.com)

КОНЦЕПТ КАК ЯЗЫКОВОЕ ЯВЛЕНИЕ, ОТРАЖАЮЩЕЕ ЯЗЫКОВОЙ ЛАНДШАФТ МИРА

Аннотация. *Термин «концепт» представлен в данной статье как мысленное представление. Многие учёные, представляющие различные дисциплины, разработали идею о том, что концепт — это ментальная репрезентация. Его рассматривают как ментальную сущность, которая отражает культурные особенности, концепции, предметы, поведение или состояние. Термин «ментальная репрезентация» описывает, как знания, идеи или опыт внутренне хранятся и упорядочиваются в уме. Эти представления, которые позволяют людям обрабатывать, изменять и извлекать информацию, могут быть мысленными картинками, символами или когнитивными структурами. Кроме того, данная статья предоставляет информацию о том, как культуры формируют концепции.*

Ключевые слова: *концепт, ментальная репрезентация, прототип, фрейм, схемы, категории, концептуальные метафоры, когнитивный процесс.*

Makhmudova Manzura Adashovna (Teacher, Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics; e-mail: missterrasamarkand@gmail.com)

CONCEPT AS A LINGUISTIC PHENOMENON REFLECTING THE LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE WORLD

Annotation*. Based on the beliefs of several linguists, the term "concept" is provided in this article as a mental representation. Many academics from a variety of disciplines have developed the idea that concepts are mental representations. It is seen as a mental entity that represents cultural quirks, concepts, items, behaviors, or conditions. The term "mental representation" describes how knowledge, ideas, or experiences are internally stored and arranged in the mind. These representations, which enable people to process, modify, and retrieve information, can be mental pictures, symbols, or cognitive structures. Additionally, it offers information on how cultures shape conceptions.*

Key words: *concept, mental representation, prototype, frame, schemas, categories, conceptual metaphors, cognitive processing.*

Kirish. Til va konsept o'rtasidagi munosabat semantika, kognitiv tilshunoslik va pragmatika kabi sohalarning markaziy mavzusidir. Tilshunoslikda konsept, odatda, tildan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan mental ifoda yoki mavhum g'oya sifatida tushuniladi. Konseptlar muhim lingvistik hodisa bo'lib, tilshunoslik sohasining umumjahon qarashlari va tushunchalarini qamrab oladi. Konseptlar ma'noning poydevori sifatida tilni bilish va muloqotga nisbatan qanday ishlashini tushunish uchun zarurdir. Bruner konseptlar kognitiv vositalar bo'lib, odamlarga tajribalarni tashkil qilish va tushunishga yordam beradi deb aytadi. U konseptual rivojlanishda tilning rolini ta'kidlab, konseptlar haqida qanday fikrlashimiz ularni qanday tushunishimizga ta'sir qilishini ta'kidlaydi [12;71-b.]. Konseptning mental ifoda nazariyalariga ko'ra konseptlar har xil talqin qilinishi mumkin. Klassik nazariya konseptlarni muhim va yetarli xususiyatlar to'plami sifatida talqin qiladi. Masalan, "uchburchak" konsepti o'z ichiga uchta tomonga ega va ichki burchaklar yig'masi 180 gradusga teng degan tushunchani oladi. Prototip nazariyada konseptlar "prototiplar" orqali namoyon bo'ladi, bu eng oddiy yoki ideallashtirilgan misol bo'lishi mumkin. Masalan, "mushuk" prototipi uchun mushuklarga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgani uchun silovsin misol bo'lishi mumkin. Exempler nazariyada esa konseptlar faqat prototipgina emas, balki xotirada saqlangan maxsus misollar orqali namoyon bo'ladi. Masalan,"maktab" konsepti maktab haqidagi xotiralar bilan bog'liq bo'lgan misollarni o'z ichiga olishi mumkin. Nazariyaga asoslangan yondashuvda esa konseptlar misollar va xususiyatlarga emas, balki nazariy bilim va kazual aloqalarga asoslangan holda izohlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Konseptlar madaniy va ijtimoiy bilim, tajriba, va qadriyatlarni qamrab oladi va voqeilikni til orqali mental qurilmasini shakllantiradi. Konseptning bilish jarayonidagi roli muhim ahamiyatga ega bo'lib, u turkumlashtirish (masalan, yangi obyektni "it" sifatida qabul qilinishi "it" konseptiga solishtirish orqali vujudga keladi), sababiyat (masalan, hamma itlar akkillaydi, bu it shuning

uchun u ham akkilashi mumkin) va muloqotni (ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan konsept va uning ma'nosidagi barcha nozikliklar o'sha madaniyat vakillari uchun ma'lumdir) ta'minlaydi. Kantning ta'kidlashicha, konseptlar ongdagi aprior tuzilmalar bo'lib, ular bizga hissiy tajribani tashkil qilish va tushunishga yordam beradi. Uning fikricha, biz dunyodan passiv ma'lumot olmaymiz, aksincha, biz idrokimizni makon, vaqt va sababiylik kabi mental konseptlar orqali faol tuzamiz Kant tajribani anglash uchun konseptlar zarurligini ta'kidlaydi [9;155-b.]. Lakoff ham tilni inson bilishi bilan chambarchas bog'liq deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, konseptlar bizning jismoniy tajribamiz va dunyo bilan o'zaro munosabatlarimizda mujassamlangan va asoslanadi [7;5-b.]. Jekendoff lingvistik tuzilmalar bilan taqqoslanadigan, murakkab fikrlarni nisbatan sodda til konstruksiyalari orqali qanday ifodalashimizni tushuntirishga yordam beradigan konseptual ifodalar mavjudligini aytadi [14;651-b.]. Konseptlar leksik birliklar va lingvistik tizimlar orqali ifodalanib, shaxsdagi kognitiv jarayon va madaniy o'ziga xoslik o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qiladi. A. Leontev mental ifodalarni faoliyat bilan bog'ladi. Konseptlar alohida emas, balki maqsadlar, vositalar va ijtimoiy tuzilmalarni o'z ichiga olgan amaliy faoliyatning bir qismi sifatida tushunilgan. U o'z nazariyasida real dunyo kontekstida mental ifodalarning amaliy va funksional xususiyatlariga urg'u berdi [2;9-b.]. Searl mental ifodada maqsadning rolini ta'kidlaydigan ma'no nazariyasini ishlab chiqdi. Searlning fikriga ko'ra, konseptlar dunyodagi biror narsa haqida bo'lgan maqsadli mental holatlardir [13;5-b.].

Har bir til o'ziga xos yagona bo'lgan dunyo "tasvirini" yaratadi, ya'ni, til egalarining atrof-muhitni anglashi va tabaqalashtirishini aks ettiruvchi mental qolip. Ushbu mental qolip xilma xil bo'lib u tarix, geografiya va ijtimoiy strukturalar asosida shakllangan tillar oilasiga xos bo'ladi. Vigotskiy konseptlarni shakllanishida ijtimoiy o'zaro ta'sir va madaniy vositalarning rolini ta'kidlab, ularni til orqali shakllanadigan dinamik mental ifodalar sifatida ko'rgan. U murakkab kognitiv funktsiyalar, shu jumladan konseptual fikrlash ijtimoiy muloqot va tildan foydalanish orqali paydo bo'lishini ta'kidlagan [17;163-b.]. Masalan, inuit tillarida qorni anglatuvchi lisoniy birliklar ko'pligi ularning madaniyatida atrof-muhit muhim ahamiyatga ega ekanligini bilish mumkin yoki ingliz tilidagi vaqt bir chiziqda turgan hodisa sifatida qaraladi ("save time", "waste time"), hopi tilida esa vaqt aylana yoki korinmas hodisa sifatida konseptuallashganini ko'rish mumkin. Vigotskiy sotsial-madaniy nazariyasida madaniyat va tilning mental ifodalarni shakllantirishdagi rolini ko'rsatib, uni ijtimoiy-madaniy kontekstdagi konseptlarni tushunish uchun asos qilib berdi [17;260-b.]. Lotman konseptlarni o'rganishni madaniy semiotikaga kengaytirib, mental ifodalar madaniy matnlar, ramzlar va aloqa tizimlari tomonidan shakllantirilishini taklif qildi. Uning semiosfera nazariyasi madaniy muhit konseptlarning tuzilishi va tushunilishini qanday shakllantirishini ochib berdi [15;123-b.].

Dunyoning lisoniy tasviri o'zida har xil tillardagi voqelikning o'ziga xos idrok qilishlikning qanday kodlanganligini aks ettiradi. Masalan, ba'zi madaniyatlarda yomg'ir yoki his-tuyg'ular uchun ko'plab so'zlar bo'lishi mumkin, bu ularning dunyoqarashidagi bu hodisalarning ahamiyatini ko'rsatadi. So'zlar bu shunchaki belgilar emas, balki konseptual ma'nolar bilan boyitilgan bo'lib, mazmunli muloqotni ta'minlab beradi. Mahmudovaning ta'kidlashicha, ma'lum bir madaniyat uchun dolzarb va qimmatli bo'lgan, fiksasiyalanishi uchun juda ko'p til birliklariga ega bo'lgan, maqol va masallar, she'riy va nasriy matnlarning mavzusi bo'lgan voqelikni aks etuvchi hodisagina konseptga aylanadi [18;43-b.]. Luriya turli madaniyatlarda mental ifoda va kontseptual fikrlash qanday farq qilishini ko'rsatuvchi madaniyatlararo tadqiqotlar o't-kazdi. U konseptning shakllanishiga ta'lim, ijtimoiy tizim va madaniy normalar ta'sir qilishini ko'rsatdi [1;48-b.]. Brunerning konstruktivizm bo'yicha asarida konseptlar tug'ma emas, balki ijtimoiy va kognitiv jihatdan dunyo bilan o'zaro ta'sir qilish orqali shakllanishini ta'kidlagan [12;33-b.]. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, konseptlar dinamik hisoblanadi, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bir qatorda rivojlanib boradi va ular jamiyatning dunyoni qanday talqin qilishini va unga munosabatini aks ettiradi. Konseptning mental ifoda sifatida o'zgarib borishiga tajriba va madaniyat, til, kognitiv rivojlanish, kontekst va maqsadlar ta'sir ko'rsatadi. Xofstadter ham konseptlar dinamik, moslashuvchan, ko'pincha, analogiyani qo'llash orqali qurilgan deb aytadi. U mental ifodalar, ko'pincha, namunalar va metaforik mulohazalar orqali qanday tuzilganligini muhokama qilib, analogiya yaratish kabi murakkab kognitiv funksiyalar konseptual fikrlash uchun muhim ekanligini ko'rsatdi [3;2-b.]. Faukonnier va Tyornerlarning konseptual qorishma nazariyasi bo'yi-cha turli psixik bo'shliqlar elementlari birlashganda yangi psixik tasavvurlar (yoki konseptlar) paydo bo'ladi. Ushbu aralashtirish jarayoni odamlarga yangi konseptlarni yaratish va murakkab vaziyatlarni yangi usullar bilan tushunish imkonini beradi. Ularning ishi konseptlar birikmasi inson bilishi va ijodida, ayniqsa, tildan foydalanishda qanday markaziy rol o'ynashini ko'rsatdi [8;353-b.].

Piagetning ta'kidlashicha, konseptlar assimilatsiya (yangi tajribalarni mavjud ramkalarga integratsiyalash) va joylashtirish (yangi tajribalarni kiritish uchun qoliplarni o'zgartirish) orqali shakllanadi [10; 236-b.]. Konseptlarning kognitiv hodisa ekanligi bu ularning inson ongida tajriba, anglash va til orqali

shakllanishidir. Uning ko‘p qirrali ekanligi esa u o‘zida mantiqiy, assotsiativ, emotsional va madaniy komponentlarni mujassamlashtirgan. Piagetning bolalar kognitiv rivojlanishning turli bosqichlaridan o‘tadilar, asta-sekin murakkabroq va mavhum konseptlarni (masalan, saqlanish, sabab va ta’sir konseptlari) egallaydilar deb aytgan [10;21-b.].

Fodor esa ong yuzlarni tanib olishi yoki tilni tushunishi kabi kognitiv vazifalarning maxsus turlariga ixtisoslashgan modulli mental tuzilmalardan iborat bo‘lishi kerakligini taklif qildi. Ushbu modullar ma’lumotni parallel ravishda qayta ishlaydi va konseptual ifoda ushbu modullarda joylashgan deb hisoblanadi. Shuni aytish joizki, Fodorning konseptlar ifoda sifatida nazariyasi bo‘yicha konseptlar tug‘ma va mental ifoda bo‘lib, ular mental modullar tomonidan qayta ishlanadi. Uning nazariyasi konseptlar, keyinchalik, shakllanganmi yoki tug‘mami degan bahslarga olib keldi [11;2-b.]. Spelke ham Fodor kabi o‘z tadqiqotlarida konseptlar nafaqat tajriba orqali o‘rganiladi, balki miyada tug‘ma yoki hech bo‘lmaganda, sezilarli darajada oldindan dasturlashtirilgan bo‘lishi mumkin degan fikrga urg‘u beradi. Spelkening fikricha, chaqaloqlar asosiy bilim tizimlari to‘plami bilan tug‘iladi, ular obyektning doimiyligi, kauzallik va son kabi asosiy konseptlarni o‘z ichiga oladi. Uning ta’kidlashicha, bu dastlabki konseptlar yanada murakkab kognitiv tuzilmalarning keyingi rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [5;89-b.].

Aytish mumkinki, konseptlar lingvistik hodisa sifatida mental ifodaga ega. Konseptlarning mental ifoda ekanligi inson ongi qanday qilib fikrlar, hodisalar va obyektlar haqidagi bilimni saqlashi, qayta ishlashi va tashkil qilishida namoyon bo‘ladi. Konseptlar bizlarga dunyoni turkumlashtirish, aloqalarni tushunish va murakkab firklash jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu ifodalar bilishning asosi bo‘lib, muloqot, sababiyat va muammonning yechimini topishni ta’minlaydi. Konseptning mental ifodaga egaligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Konsept ongdagi borliq bo‘lib, ongimizda g‘oyalar, predmetlar, harakatlar yoki holatlarning ifodasi sifatida mavjud bo‘lgan birlikdir. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, bu mental ifoda, ko‘pincha, ushbu g‘oyalarni ifodalash uchun ishlatiladigan so‘zlar va tuzilmalar guruhi bilan bog‘liq. Masalan, “it” so‘zi odatda hurish va dumini silkitish kabi ma’lum xususiyatlarga ega to‘rt oyoqli hayvon to‘g‘risidagi konseptni uyg‘otadi. Bu konsept lingvistik shakl bilan chegaralanib qolmay, balki itlar haqidagi mental tushunchamizni ham qamrab oladi.

Mental ifoda bu ma’lumotlar, konseptlar yoki tajribalarni ongda saqlash va tartibga solish usulini anglatadi. Ushbu ifoda insonga ma’lumotni qayta ishlash, boshqarish va olish imkonini beruvchi mental tasvirlar, belgilar yoki kognitiv tuzilmalardir. Mental ifoda idrok, xotira, fikrlash va tilni o‘zlashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, bu bizga atrofimizdagi dunyoni boshqarish va tushunishga yordam beradi.

Konsept tushunchasi mental ifoda sifatida kognitiv fan, tilshunoslik, falsafa va psixologiyaning turli sohalarida markaziy mavzu bo‘lib kelgan. Ushbu fanlar bo‘yicha ko‘plab olimlar konseptlar nafaqat mavhum g‘oyalar, balki biz dunyoni tartibga solish va sharhlash uchun foydalanadigan mental tuzilmalar yoki tasavvurlar degan fikrga kelishgan. Ushbu mental ifodalar bizning fikrlash, fikr yuritish, tasniflash va tilni tushunish qobiliyatimiz uchun markaziy o‘rinni egallaydi.

Konseptlar mental ifodada turli ko‘rinishda bo‘ladi. Tasvirlar ongdagi vizual yoki hissiy tasvirlar bo‘lib, masalan, daraxt yoki yuz kabi aniq obyektni tasavvur qilish orqali mental tasvirning yaratilishidir. Propozitsiyalar, ko‘pincha, “g‘oyalar” yoki “fikrlar” ko‘rinishidagi tizimli shakllangan ma’lumotni beruvchi ma’noning mavhum ifodalarni bildiradi. “Mushuk gilamchada” propozitsiyasi “mushuk”, “gilam” konseptlari va “bo‘lmoq” harakati o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi, sxemalar va skriptlar, sxemalar – konseptlar yoki vaziyatlarni tushunish uchun tashkil etilgan mental freymlar yoki tuzilmalar, skriptlar esa hodisalarning odatiy ketma-ketligi haqidagi bilim tuzilmalari (masalan, “restoran skripti” restorandagi harakatlarning taxminiy ketma-ketligini boshqaradi). Lakoff konseptlarni tushunishda freym g‘oyasini kiritdi. Misol uchun, “oila” so‘zi nafaqat kichik oilani, balki katta oiladagi munosabatlar va mas’uliyatni ham o‘z ichiga olgan mental freymni keltirib chiqarishi mumkin [6;5-b.]. Piaget konseptlarni atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish orqali rivojlanadigan mental tuzilmalar sifatida ko‘rgan. Uning kognitiv rivojlanish nazariyasida sxemalar yoki mental freymlar dunyo bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan shaxslar tomonidan yaratiladi [10;155-b.], konseptlar – bu obyektlar, hodisalar yoki g‘oyalar toifalari yoki sinflarining mental tasvirlari (masalan, “it” yoki “sevgi” konsepti), kognitiv xaritalar – atrof-muhitning fazoviy tasvirlari bo‘lib, odamlarga jismoniy bo‘shliqlarni kezish va eslab qolishga yordam beradi (masalan, uyingiz yoki shahringizning ongdagi xaritasi), turkumlar va taksonomiyalar: mental ifoda, ko‘pincha, o‘zaro bog‘liq narsalarni umumiy xususiyatlar asosida toifalarga guruhlaydi. Misol uchun, “qush” toifasi robinlar, chumchuqlar va burgutlar kabi hayvonlarning ongdagi tasvirlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Rosh konseptlarning prototip nazariyasi bo‘yicha qilgan ishi bilan mashhur bo‘lib, u qat’iy belgilangan xususiyatlar to‘plami bilan belgilan-

gan konseptlar to‘g‘risidagi klassik qarashlarni shubha ostiga qo‘yadi. Buning o‘rniga u konseptlar prototiplar atrofida tashkil etilishini taklif qildi–bu kategoriyaning eng ko‘p uchraydigan yoki asosiy misollari. Masalan, yuqorida keltirilgan qush tushunchasi prototip sifatida robin bilan ifodalanishi mumkin, pingvinni misol keltirish esa kamroq uchraydi. Bu nazariya kognitiv fan va tilshunoslikda turkumlashtirish va konseptuallashtirishni o‘rganishga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi [4;192-b.].

Kognitiv jarayonlarda mental ifodaning roli quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Idrok – mental ifoda bizga sezgi organlari bergan ma’lumotni talqin qilish va tushunish imkonini beradi. Masalan, biz obyektni ko‘rganimizda, miyamiz uning mental ifodasini yaratadi va uni tanib olish va tasniflashga yordam beradi; xotira mental ifoda bilimlarni miyada saqlash usulidir. Uzoq muddatli xotira murakkab mental ifodani saqlashni o‘z ichiga oladi, ular esga olinadi va kerak bo‘lganda, qayta tashkil etiladi, muammoni hal qilish va qaror qabul qilish – mental ifoda bizga strategiyalarni shakllantirish, yechimlarni tasavvur qilish va variantlarni baholashga yordam beradi, tilni anglash – tilni tushunish va ishlatishda mental ifoda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biz jumlani eshitganimizda yoki o‘qiganimizda, tasvirlangan vaziyatning ongdagi modelini qurish uchun so‘zlarning mental reprezentativlari va ularning ma’nolaridan foydalanamiz; mulohaza yuritish – mental reprezentativlar bizga mantiqiy fikrlashishimizga imkon beradi, bunda mavhum konseptlar yoki propozitsiyalar xulosaga kelish uchun ongimizda boshqariladi. Bu tasvirlarni boshqarishni (masalan, ongingizdagi mavjud obyektlar) yoki mavhum konseptlarni (masalan, hayvonlarni sutemizuvchilar, qushlar va boshqalarga ajratish) o‘z ichiga olishi mumkin.

Mental ifoda va til. Searlning nutq aktlari va ma’noga bag‘ishlangan ishida konseptlar g‘oyasini lingvistik ma’no bilan bog‘lab, konseptlarni tushunish nafaqat mental ifodani balki ijtimoiy kontekstda qo‘llaniladigan tilni ham tushunishni o‘z ichiga oladi, degan fikrni bildirgan [13;5-b.]. Til mental ifodaga ega bo‘lgan konseptlar bilan chambarchas bog‘langan. Obyektlar, harakatlar yoki g‘oyalar haqida fikr yuritganda yoki gapirganda, biz jumlalarni shakllantirish va ma’noni yetkazish uchun mental ifodalarga tayanamiz. Tilni tushunish jarayoni lingvistik shakllarni dunyoning ichki mental ifodalarga moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Til va mental ifoda o‘rtasidagi munosabat kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va semantik nazariya kabi sohalarda markaziy o‘rin tutadi. Gapni tushunishda mental ifoda – “It panjaradan sakrab o‘tdi” kabi jumlani eshitganimizda, miyamiz voqeaning mental ifodasini yaratadi: ma’lum bir kontekstda (panjara) harakatni (sakrashni) bajarayotgan itning tasviri paydo bo‘ladi. Bu hodisa ifodasi deb ataladi. Konseptual metaforalar – mental ifoda tilda metafora qo‘llanilishini tushuntirishga yordam beradi. Lakoff va Jonsonlar konseptual metaforalarga oid ishi (masalan, “vaqt – pul” yoki “argument – urush”) mavhum konseptlar qanday tuzilganligini aniq tajribalar orqali tushunilishini ko‘rsatadi [7;4-b.]. Masalan, “Vaqt – bu pul” metaforasida vaqt mavhum konsepti idrok jihatdan aniqroq manba (pul) sifatida ifodalanmoqda, vaqt haqida gapirish va fikrlashni shakllantiradi. Kovecses ham Lakofdek konseptual metafora bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, metaforalarning inson madaniy tajribalarida qanday ildiz otishi va ular jamiyat madaniyati tomonidan qanday shakllantirilishi va shakllanishiga e’tibor qaratdi. U konseptual metaforalarning shakllanishida madaniy kontekstning rolini ta’kidlab, turli jamiyatlar bir xil mavhum konseptlarni tushunish uchun turli metaforalardan qanday foydalanishi mumkinligini ko‘rsatdi [16;193-b.].

Idrok va madaniyatda mental ifoda. Vigotskiyning fikricha, konseptlar boshqalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish orqali o‘rganiladi va shaxs tarbiyalangan madaniy va lingvistik kontekstga qarab shakllanadi [17;103-b.]. Bu til va madaniyat mental ifodani shakllantiradi, degan fikrga mos keladi. Turli kognitiv qoliplar va lingvistik tuzilmalar tufayli mental ifodalar turli madaniyatlarda farq qilishi mumkin. Masalan, turli madaniyatdagi shaxslar vaqt, makon, his-tuyg‘ular yoki ijtimoiy munosabatlarni qanday konseptuallashtirgani madaniy sxemalar va tilning ularning mental ifodalariga ta’sirini aks ettirishi mumkin. Konseptlarning ongda ifodalanishi madaniy qadriyatlar, ijtimoiy amaliyot va lingvistik iboralarga ko‘ra farq qilishi mumkin.

Xulosa. Mental ifodalar bilish uchun asos bo‘lib, biz dunyoni qanday tushunishimiz, tasniflashimiz va o‘zaro munosabatimiz uchun tuzilma va asosni ta’minlaydi. Ular bizga hissiy ma’lumotlarni qayta ishlashga, o‘tmishdagi tajribalarni esga olishga, qarorlar qabul qilishga, mavhum konseptlar haqida fikr yuritishga va tildan foydalanishga yordam beradi. Psixik tasvirlarning mohiyatini tushunish va ularning til va madaniyat bilan aloqasi kognitiv fan, psixologiya va tilshunoslikning asosiy tadqiqot sohasidir. Konseptlar dunyo haqidagi tajribamizni shakllantiradi degan g‘oyani ilgari surgan Kant kabi ilk falsafiy nazariyotchilardan tortib, prototip nazariyasini taklif qilgan Rosh kabi kognitiv olimlargacha olimlar konseptlarning mohiyatini voqelikni turkumlash va tushunishning asosiy mental vositalari sifatida o‘rganib chiqdilar. Lakoff, Fodor va boshqalarning ishlari konseptlarning ham lingvistik tuzilmalar, ham kognitiv jarayonlar bilan qanday chuqur bog‘langanligini va ular ijtimoiy, madaniy va atrof-muhit omillari ta’sirida qanday shakllan-

ganligini ko‘rsatdi. Bu olimlar birgalikda bizning fikrlashimiz, tasniflashimiz va dunyoni kezish uchun tildan foydalanishimiz haqidagi tushunchamizni rivojlantirdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). A.Luria. Cognitive development: its cultural and social foundation, Harward University Press, Cambridge, Massachusetts, and London, England, 1976, p. 171.

(2). A.Leontiev. "Activity, Consciousness, and Personality", First Published by Prentice-Hall, Translated by Maris J. Hall. 1978, p. 102.

(3). D.R.Hofstadter. Analogy as the Core of Cognition, Reprinted by kind permission of The MIT Press, 2001, 21pp.

(4). Eleanor Rosch. Cognitive representation of semantics, Journal of Experimental Psychology: General, Vol.104, #3, 1975, p. 192–233.

(5). Elizabeth S. Spelke and Katherine D. Kinzler, Core knowledge, Developmental Science 10:1, DOI: 10.1111/j.1467-7687.2007.00569. x, 2007, p. 89–96.

(6). George Lakoff. "Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind", The University of Chicago Press, 1986, p. 316.

(7). George Lakoff and Mark Johnsen, Metaphors we live by, London, The university of Chicago Press, 2003, 193 p.

(8). Gilles Fauconnier; Mark Tyorner. "The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind’s Hidden Complexities”, Basic Books, A member of the Perseus Books Group, New York, 2002, p. 423.

(9). Immanuel Kant, Critique of Pure Reason, Cambridge University Press, 1998, p. 775.

(10). Jean Piaget. The Origins of Intelligence in Children, International Universities Press, Inc., New York, 1952, p. 442.

(11). Jerry A.Fodor. Precis of The Modularity of Mind, The Behavioral and Brain Sciences, 8., Printed in the United States of America 1985, p. 1–42.

(12). J.Bruner. Cognitive psychology, Acts of meaning, Harward University Press, Cambridge, Massachusetts, and London, England, 1990, p. 30–138.

(13). John Searle. Intentionality: An Essay in the Philosophy of Mind. Cambridge University Press, 1983, 277 p

(14). Ray Jackendoff. “Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution", The Behavioral and Brain Sciences, 26., Printed in the United States of America 2003, p. 651–707.

(15). Y.M.Lotman. Universe of the mind: A Semiotic Theory of Culture, Indiana University Press, Bloomington and Indianapolis, 1990, p. 300.

(16). Zoltan Kovecses. Metaphor in Culture. Universality and Variation, Cambridge University Press, 2005, 345 pp.

(17). Л.С.Выготский. Мышление и речь. Государственное социально-экономическое издательство, Москва, 1934, с. 362.

(18). M.Maxmudova. “Konsept” tushunchasining ilmiy talqini. “Ilm sarchashmalari”, научно-теоретический, методический журнал, 5/2.2023, 40–45-betlar.